

ATOULLIXON TO'RA MASJIDI

Abdullayev Zohidjon Tolibjon og'li

NamDu, Tarix yo'nalishi, 3-kurs talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Namangan, Ahmad Ubaydullox, Degrezlik, Sardoba, Masjid, Abdulaziz, qirotxonona.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yurtimizdagi yirik me'moriy inshootlar biri bo'lgan, Namangan shahrida joylashgan va shaharga ko'rk bag'ishlab turgan masjidlardan biri Atoullaxon to'ra masjidi qurilishi tarixi, faoliyati, o'ziga xos uslublari haqida ma'lumotlar berilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Namangan shahridagi me'moriy obidalarning ajoyib namunalaridan biri Sumalak guzari mahallasi markazida, Uychi ko'chasida joylashgan Atoullaxon to'ra masjidi. Bu masjid mahalliy aholi iborasida Otavalixon to'ra masjidi deb atab kelinadi. Tarixdan ma'lumki, Namangan shahri to'rt qismga Labbaytog'a, Sardoba, Chuqurko'cha, Degrezlik kabi dahalarga bo'lingan. Mazkur dahalarning har birida jome' masjidlari va madrasalari bo'lgan. Jumladan, Degrezlik dahasining markazida, ya'ni hozirgi Atoullaxon to'ra masjidi o'rnida ham XVII asrning oxirida bunyod etilgan madrasa va katta jome' masjidi binosi mavjud edi. Manbashunos Ahmad Ubaydullox "Namangan xaqiqati gazetasining 2007-yil 31-yanvar sonida "Nodir obidalardan biri" maqolasida ushbu masjid yog'ochdan sinchli qilib kuril ganligini ta'kidlaydi. Binoning ichki va tashqi ko'rinishlari hamda jome' masjidining ayvoni amaliy san'atning go'zal usullari bilan naqsh qilinib, ziynatlangan hamda arab yozuvining kufiy, suls, nasx va nasta'liq usullarida oyatlar, xadislar hamda salavotlar yozilgan. Shuningdek, ganch va yog'och o'ymakorligi ishlari nihoyatda mohirona bajarilgan. XIX asrda Xalifa Abdulaziz nomi bilan mashhur bo'lgan sufiy shoir Abdulaziz Xasanxo'ja o'g'li Majzub Namangoniy mazkur madrasa va jome' masjidini ta'mirlab, shu yerda mudarrislik qiladi. Shu davrdan boshlab bu madrasa va jome' masjid Xalifa Abdulaziz madrasasi nomi bilan atay boshlanadi. Xalifa Abdulaziz vafotidan so'ng oradan bir qancha yillar o'tgach, XX asrning boshlariga kelib, sababi noma'lum bo'lgan yong'in natijasida masjid va madrasa binolari tamoman kuyib ketadi. Yong'indan so'ng Xalifa Abdulazizning nabirasi Atoullaxon (Otavalixon) to'ra boshliq Degrezlik dahasiga qarashli birlashmalarining oqsoqollari o'zaro maslahatlashib, kuyib ketgan masjid va madrasa binosining o'rniga yangidan gumbazli jome masjidi qurishga qaror qiladilar.

Xalqimizning bebaxo boylıklaridan biri Otavalixon to'ra (Atoullaxon To'ra) Gumbaz masjidi XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan zullisonayn shoir va naqshbandiya tariqatining taniqli xalifalaridan bo'lmish Majzub Namangoniy bino etgan masjid o'rnida qurilgan. Bu zot Muhammad Aziz Namangoniy nomi bilan mashhur bo'lgan. Majzub Namangan shahrining Degrezlik dexasida tug'ilib, boshlang'ich ta'limni ham shu yerda olgan. Keyinchalik Buxoro madrasasida o'qigan va zamonasining bilimdon kishilaridan biri bo'lib yetishgan. Majzub Namangoniy uzbek, fors-tojik tillarida yassaviyona xikmatlar, g'azallar bitgan va o'zidan bir devon meros qoldirgan.

Majzubning she'rlari birinchi (litografiya)da bosilgan.¹

Bo'lg'usi masjid binosining loyihasi ishlab chiqiladi. Masjid faqat pishiq g'ishtdan qurilishi va ichki qismi turli o'yama naqshlar bilan bezatilishi kerak edi. Atoullaxon to'ra masjidining mazkur loyihasi hozirda Respublika markaziy Davlat arxivida saqlanmoqda. Bunday ulkan gumbazli binoni qurish ishi oson bo'lmaganligi uchun taklif etilgan ustalarning ko'pchiligi bu murakkab va mas'uliyatli vazifani zimmalariga olmadilar. Nihoyat, o'sha davrdagi mashhur namanganlik Ibrohim me'morning o'g'li Usta Mulla Qirg'iz qurilish ishlariga kirishdi. Mulla Qirg'iz haqiqiy ustazoda bo'lib, me'morlik san'ati sohasida tug'ma iste'dodga ega edi. 1915-yilning bahorida qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qurilish jarayonida usta Mulla Qirg'iz bilan uning iste'dodli shogirdlaridan usta Fozil Namangoniylig. Soqov xoji va boshqalar birga ishlaydilar.

Atoullaxon to'ra masjidi (qiroatxonasi) – Namangan shahridagi me'morchilik obidasi. Iste'dodli me'mor Mulla Qirg'iz boshchiligida 1916-yilda qurilgan. Qurilish Xalifa Abdulaziz (Majzub) Namangoniylig nabirasi Atoullaxon to'ra rahbarligida xalq mablag'i va kuchi bilan amalga oshirildi. Atoullaxon to'ra masjidi pishiq g'ishtdan tiklangan, bino kompozitsiyasi to'rt burchakli, gumbazi simmetrik bo'lib, 27x9 m.li reja asosida qurilgan. Gumbaz atrofi aylanasiga bir necha panjarador tuynuklar qo'yilgan. Gumbazning g'arbiy va sharqiy tomonlari 4 ta, shimoliy va janubiy tomonlari 8 ta g'ishtin ustunlar uzra o'rnatilgan. Ustunlari rangin sirkor qoplamali, yuqori qismiga arab yozuvining Kufiy xati bilan so'zlar bitilgan. Bino eshigining ikki yonida 2-qavatga olib chiquvchi balandligi 10 m.li burama zinapoyalar bor. Ular g'isht terish san'atining kamyob usullaridan biri hisoblanadi.²

Usta Mulla Qirg'iz masjid qurilishida o'zining barcha tajribasini ishga soladi va maxoratini namoyon qiladi. Chunki bunday murakkab qurilish inshootlari kamdan-kam bunyod etilar edi. Dastlab bino poydevorini 4 oy davomida shibbalab qotirilgan, har bir shibba urishdan oldin poydevorga to'ldirib suv quyilgan, to suv shimilib ketguncha kutib turilgan, keyin yana shibba urilgan. Bu hol poydevorga quyilgan suv ma'lum muddat shimilguncha davom ettirilgan va shundan so'ng tosh terib, qamish solib, g'isht terilgan. Bino tarxi to'g'ri burchakli va gumbazi mutanosib bo'lib, 27x19,6 metrlik reja asosida qurilgan. Masjidning usti aylanasi diametri 13,9 metrlik qovurg'ali ulkan gumbaz bilan yopilgan. Gumbazning yon tomonlariga aylantirib bir nechta panjarasimon tuynuklar qo'yilgan. Masjid gumbazi ning g'arbiy va sharqiy qismlari g'ishtdan ko'tarib ishlangan. Ular to'rtta ustun tepasiga o'rnatilgan bo'lsa, gumbazning shimoliy va janubiy qismlari sakkizta ana shunday ustunchalar ustiga o'rnatilgan. Bu ustunlarning barchasi turli rangdagi sirkor qoplamalar bilan qoplanib, yuqori qismiga kufiy xati bilan Allox va uning sifatlari yozilgan. Ustunlar bilan devor orasidagi bo'shliq esa masjid ayvonini tashkil qiladi. Masjidga kirish eshigining ikki yonida ikkinchi qavatga chiqish uchun balandligi 10 metrga yaqin, zinapoyali burama yo'laklar bor. Usta Qirg'iz mazkur yo'laklarni qurishda g'isht terishning o'ziga xos maxsus usullari va salobatini mohirona namoyon etgan. Bu inshootlar namanganlik me'morlarning iste'dodidan darak beradi. Gumbazning ustki qismidagi markazdan boshlanib pastga tushgan 30 m ga yaqin qovurg'alar quyosh nurida tovlanuvchi ko'k rangli quyma sopol tuvakchalarga o'rnatilgan. Gumbazni serjilo va jozibador qilish uchun g'ishtdan bo'rttirib gullar chiqarilgan hamda uning ostidan gumbaz aylanasiga kufiy yozuvida bo'rttirib "Kalimai toyiba" bitilgan. Masjid asosan Degrezlik daxasidagi mahallalar aholisidan va boshqa muridlardan yig'ilgan mablag'lar hisobiga bunyod etilgan. Atoullaxon to'ra masjidi binosining yana bir qimmatli tomoni shuki, XVI asrdan to hozirgi davrimizgacha O'rta Osiyoda bunyod etilgan me'morlik obidalari orasida gumbazning ulkanligi jihatidan yagonaligidir. Bino qurilishi o'ziga xos ohorlilikka ega bo'lib, o'rtadagi katta gumbaz obidaning asosini tashkil qiluvchi o'rinni egallagan bo'lsa, binoning uch tomoni xonaqoh ayvon sifatida arkali gumbazlar bilan mujassamlashtirilgan. Albatta, bu kabi noyob me'moriy obidalar xalqimiz faxridir. Qozog'iston Respublikasi Turkiston shahrida joylashgan Xoja Ahmad YAssaviy maqbarasi gumbazi diametri 18,2 metrdir (XIV asrning 90- yillari), Turkmaniston Respublikasi Marv

¹ Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилояти маданий мероси. – Наманган, 2013. Б-60

² Абдулла Жаббор НАМАНГАН ВИЛОЯТИ "НАМАНГАН"-2011.Б-182

shahrida Sulton Sanjar maqbarasi XII asrda qurilgan bo'lib, gumbaz diametri 17 metrdir, Samarqanddagi XV asrda qurilgan Jome' (Bibixonim) masjidi gumbazining ichki diametri 14 metr va Go'ri Amir maqbarasi diametri Binoning asosiy kirish eshigi 10 metrga tengdir. Demak, bu inshootlarga qiyoslab ko'radigan bo'lsak, Atoullixon To'ra masjidi gumbazi XVI asrdan keyin Markaziy Osiyoda qurilgan me'morchilik obidalari ichida kattaligi jihatidan yagonadir.³

Masjid ochilishi paytida muxlislar uning ichiga yaxlit tushadigan hajmda gilam to'qib kelib to'shaganlar. Masjid ishga tushgach, kutubxonaga tashkil qilingan va bu kutubxonaga ko'plab nodir qo'lyozma kitoblar jamlangan. Atoullixon to'ra masjidi qoshida Qur'on ilmini o'rgatuvchi markaz, qorixonona tashkil qilingan va unda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab o'tgan namanganlik taniqli qiroat ilmining bilimdonlari dars berishgan. Mazkur qorixonada Ismoil Maxdum Sottiyev, Muxammadxon qori Xoja Abdullox o'g'li singari taniqli ilm ahllari saboq olishgan. 1922-yilga kelib Sho'rolar hukumatining qaroriga muvofiq butun mamlakatda diniy e'tiqod va diniy muassasalarga hamda o'sha paytlarda joriy bo'lib turgan arab yozuviga qarshi kurash boshlandi. Natijada Atoullixon to'ra masjidi ham yopildi, qochib omon qolgan ba'zi mudarrislar xorijiy mamlakatlarga o'tib ketib qutuldi. Kutubxonadagi kitoblarni va boshqa ashyolarni musodara qilib oldilar. Keyinchalik kitoblar yoqib yuborildi, ashyolar esa hukumat idoralariga taqsimlab berildi. Masjid eshigiga o'yib yozilgan oyatlarni bolta bilan chopib, yo'qotdilar.⁴

Bo'sh qolgan bino biroz muddat omborxonaga vazifasini o'tab keldi va 1930-1931 yillarga kelib xotin-qizlar klubiga aylantirildi. Namangan davlat arxivida saqlanayotgan tarixiy hujjatlarning guvohlik berishicha, Atoullixon to'ra masjidi 1939-yilning may oyiga qadar xotin-qizlar klubi bo'lib turgan. 1939-yilning 21- mayida bo'lib o'tgan Namangan shahar ijroi-qo'mita prezidiumining "Namangan shahrida vino zavodi tashkil qilish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, xotin-qizlar klubi o'sha paytdagi Oxunboboyev nomli kolxozning oshxonasiga ko'chirilgan va Atoullixon to'ra masjidi binosida vino zavodi tashkil qilingan. 1939-yil iyul oyining oxirlaridan boshlab vino ishlab chiqarilgan. Zavod bu yerda 1983-1984 yillargacha faoliyat ko'rsatdi. Mustaqillik sharofati bilan me'moriy yodgorliklarimizga alohida e'tibor berildi. Jumladan, Atoullixon to'ra masjidi ta'mirlanib, go'zal maskanga aylandi. Xozir bu yerda madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'plab musulmon davlatlaridan kelgan mehmonlar tolibi ilmlarga yaratilgan shart-sharoitlarni ko'rib ofarin aytmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдулла Жаббор Наманган Вилюяти (ихчам маълумотлар туплами) «Наманган» пашриёги - 2011. Б-287
2. И.Ю.Юсупов, Э.Ю.Мирзаалиева. Наманган вилюяти меъморий обидалари сирлари Наманган-2008.Б-118
3. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Қосимов А. Наманган вилюяти маданий мероси. – Наманган, 2013. Б-115
4. <https://meros.uz/object/abdulloxon-tora-masjid>

³ <https://meros.uz/object/abdulloxon-tora-masjid>

⁴ И.Ю.Юсупов, Э.Ю.Мирзаалиева. Наманган вилюяти меъморий обидалари сирлари Наманган-2008.Б-29